



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 352 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharfova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</i>	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari	275
<i>Axmedov Nodir Sadir o'g'li</i>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<i>Begisbay Temirbayev</i>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	283
<i>Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....	286
<i>Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi.....	290
<i>Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</i>	
Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri	296
<i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	298
<i>Aygul Aralbayevna Urazimbetova</i>	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
<i>Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar	307
<i>Idiyeva Gulchehra Izomovna</i>	




Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
<i>Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
<i>Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv	319
<i>Laylo Baxtiyor qizi Axmedova</i>	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari	323
<i>Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi	328
<i>Samadov Sardor Sodiqovich</i>	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
<i>Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi</i>	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni	340
<i>Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna</i>	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili	344
<i>Xiloldinova Zulayho</i>	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
<i>Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li</i>	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4 "K" KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUHIM DOLZARBLIKLAR

Idiyeva Gulchehra Izomovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi tayanch doktoranti



Annotatsiya: Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va hamkorlikdan iborat 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirish ularning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muammolarni tahlil qilish va jamoada samarali ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. 4 "K" kompetensiyalari yosh avlodni kelajakdagi raqobatbardosh hayotga tayyorlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, moslashuvchanligi va innovatsion fikrlashini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: 4K model, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot, kreativlik, kompetensiya, shaxsiy fazilat.

Abstract: In the process of primary education, the development of the "4C" competencies—creativity, critical thinking, communication skills, and collaboration—plays an important role in students' intellectual, social, and personal development. The modern education system is aimed not only at providing knowledge but also at fostering students' abilities for independent thinking, creativity, problem analysis, and effective teamwork. The "4C" competencies are one of the key factors in preparing the younger generation for a competitive future life. Developing these competencies in primary school enhances students' social activity, adaptability, and innovative thinking.

Key words: 4C model, critical thinking, collaboration, communication, creativity, competence, personal qualities.

Аннотация: В процессе начального образования развитие у учащихся компетенций "4К", включающих креативность, критическое мышление, коммуникативные навыки и сотрудничество, имеет важное значение для их интеллектуального, социального и личностного развития. Современная система образования направлена не только на передачу знаний, но и на формирование у школьников способностей к самостоятельному мышлению, творчеству, анализу проблем и эффективной работе в команде. Компетенции "4К" являются одним из ключевых факторов подготовки молодого поколения к будущей конкурентной жизни. Развитие этих компетенций в начальных классах усиливает социальную активность, адаптивность и инновационное мышление учащихся.

Ключевые слова: 4К модель, критическое мышление, сотрудничество, коммуникация, креативность, компетенция, личностные качества.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yosh avlodni zamonaviy bilim hamda ko'nikmalar bilan qurollantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va hamkorlikni shakllantirish – ya'ni "4K" kompetensiyalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan ^[1]. Shuningdek, Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim sifatini baholash va xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarorida zamonaviy kompetensiyalarga ega, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlash, yangicha yondashuv va jamoada ishlash ko'nikmalariga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi ^[2]. Mazkur qaror va farmonlar boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi, ularning o'quvchi shaxsiy rivojlanishi va kelajakdagi raqobatbardoshligini ta'minlashdagi o'rni beqiyos ekanini yaqqol ko'rsatadi. Shu bois ushbu mavzuni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Anderson va Krathwohl (2001) ta'lim maqsadlarini taksonomiyasi yangilangan versiyasida, ular ijodkorlik va kritik fikrlashni eng yuqori darajadagi kognitiv faoliyat sifatida belgilaydi. Ularning fikricha, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak ^[3]. Trilling va Fadel (2009) 21-asr ko'nikmalarini o'rganishda 4 "K" modeli markaziy o'rinda ekanligini ta'kidlaydi. Ular bu kompetensiyalarni faqat bilim olish emas, balki hayot davomida muvaffaqiyatli bo'lishning asosi deb biladi ^[4]. Ken Robinson (2011) ta'lim tizimida ijodkorlikni rivojlantirish insonning tabiiy salohiyatini ochib berishning eng muhim yo'li ekanligini ta'kidlaydi^[5]. Unga ko'ra, kreativlik boshqa barcha 4 "K" ko'nikmalarining yuragi hisoblanadi. Jumladan, jahon iqtisodiy forumida "Ta'limga yangi qarash" ma'ruzasida yangi model taqdim etildi, unda ta'limning barcha bosqichlarida shakllangan ta'lim natijalari asosiy savodxonlik ko'nikmalari, kompetensiyalar va xarakter xususiyatlariga bo'lindi. Quyidagi jadvalda ushbu 21-asr mahoratlari aks etgan.

1-jadval: 21-asr mahoratlari

Tayanch ko'nikmalar	Kompetensiyalar	Shaxsiy fazilatlar
O'qish va yozish ko'nikmalari	Tanqidiy fikrlash	Qiziquvchanlik
Matematik savodxonlik	Kollaboratsiya	Qat'iylik
AKT savodxonligi	Kreativ fikrlash	Yetakchilik qobiliyati
Tabiiy savodxonlik	Kommunikativlik	Tashabbuskorlik
Moliyaviy savodxonlik		Moslashuvchanlik
Madaniy va ijtimoiy savodxonlik		Ijtimoiy-madaniy savodxonlik

Modelning markaziy qismini "4K" kompetensiyalari egallaydi: ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik bo'lib, ular 21-asr qobiliyatlarining kaliti sifatida e'tirof etiladi. Tayanch ko'nikmalar-o'quvchilar kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal qilishda qanday yo'l topishlari mumkinligini anglatadi. Kompetensiyalar orqali o'quvchilar murakkabroq muammolarga qanday yechim izlashlari nazarda tutilsa, shaxsiy fazilatlar esa o'quvchilar atrof muhit o'zgarishlari muammolarini qanday hal qilishishlarini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, ularni baholash, mantiqiy xulosalar chiqarish va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. U nafaqat bilimlarni yod olishga, balki ular ustida mustaqil fikr yuritish, savol berish va mavjud g'oyalarni tekshirishga yo'naltiriladi. Tanqidiy fikrlash jarayoni muammoni aniqlash va tushunish, vaziyat yoki masalani to'liq tushunish uchun mavjud faktlarni yig'ish va tahlil qilish, ma'lumotlarning manbalarini, ishonchligini va dolzarbligini baholash, mavjud dalillar asosida asosli fikr va qarorlarni shakllantirish, turli imkoniyatlarni solishtirish va eng maqbulini tanlash, xulosa yoki qarorni dalillar bilan himoya qilish bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashning ahamiyati o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish malakasini rivojlantiradi. Yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlashga yordam beradi. Muammolarni samarali hal etishga, ijodkorlik va innovatsion g'oyalarni ilgari surishni qo'llab-quvvatlaydi. Boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni savol-javob, mantiqiy o'yinlar va boshqotirmalar yechish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va tahlil qilish topshiriqlari, real hayotdagi vaziyatlar asosida muammoli topshiriqlar berish orqali rivojlantirish imkonini beradi.

Kommunikativlik ko'nikmalari – bu shaxsning o'z fikr, his-tuyg'u va g'oyalarini tushunarli, aniq va samarali tarzda ifodalash, shuningdek, boshqalarni tinglash, tushunish va ular bilan samarali o'zaro muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikmalar nafaqat og'zaki muloqotni, balki yozma, noverbal (imo-ishora, tana tili, yuz ifodalari) va raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni ham qamrab oladi. Kommunikativlik ko'nikmalarining asosiy tarkibiy qismlariga quydagilar kiradi:

- og'zaki muloqot – nutqni aniq, ravon va tushunarli ifodalash;
- yozma muloqot – fikrlarni grammatik va mantiqiy jihatdan to'g'ri bayon qilish;
- noverbal muloqot – tana harakati, yuz ifodalari, ovoz ohangi orqali ma'lumot uzatish;
- tinglash madaniyati – suhbatdoshni faol tinglash, savollar berish va tushunishni aniqlashtirish;
- muloqotda moslashuvchanlik – turli vaziyat, madaniyat va auditoriyaga mos ravishda gapirish uslubini o'zgartira olish;
- empatiya – suhbatdoshning hissiyotlarini tushunish va ularga mos ravishda javob berish.



Boshlang'ich maktab davrida kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi, jamoada ishlash, do'stona munosabatlar o'rnatish imkonini beradi. Dars jarayonini samarali qiladi, savol-javoblar, guruh ishlari va bahslar orqali bilim mustahkamlanadi. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, o'z fikrini izchil bayon qilish va boshqalarning fikriga tahliliy yondashish ko'nikmasi shakllanadi. o'ziga ishonchni oshiradi, omma oldida so'zlash va fikr bildirish malakasi kuchayadi. Lev Vygotsky kommunikativlikni shaxs rivojlanishining markaziy elementi sifatida ko'radi, chunki til va muloqot orqali tafakkur shakllanadi. Michael Halliday tilning sotsial funksiyasini ta'kidlaydi, u kommunikativlik orqali o'quvchi dunyoqarashini kengaytiradi.

Hamkorlik ko'nikmalari – bu shaxsning umumiy maqsad sari jamoa yoki guruh tarkibida samarali ishlash, vazifalarni birgalikda bajarish, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash orqali natijaga erishish qobiliyatidir. Boshlang'ich ta'lim jarayonida hamkorlik ko'nikmalari o'quvchilarning nafaqat o'quv jarayonida, balki hayotiy faoliyatida ham muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur hisoblanadi. Bu ko'nikmalar orqali bolalar jamoada ishlashni, fikrini to'g'ri ifodalashni, boshqalarni tinglashni va murosaga kelishni o'rganadi. Hamkorlik ko'nikmalarining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- o'zaro hurmat – guruh a'zolarining fikrlarini qadrlash, o'zaro ehtiromda bo'lish;
- faol tinglash – sherikning fikrini to'liq eshitish va tushunish;
- vazifalarni taqsimlash – ishni adolatli bo'lib olish va bajarish;
- mas'uliyat – guruhdagi o'z rolini sidqidildan bajarish;
- murosaga kelish – kelishmovchiliklarda umumiy yechim topish.

Boshlang'ich sinflarda hamkorlik ko'nikmalari turli xarakterdagi insonlar bilan ishlashga tayyorlaydi. Muammolarni birgalikda hal etish, murakkab vazifalarni tezroq va sifatli bajarishga yordam beradi. Yetakchilik va tashabbuskorlikda guruh ishida liderlik fazilatlarini rivojlantiradi. O'zaro o'rganish, bilim va tajribani almashish imkonini beradi.

Kreativlik ko'nikmasi – bu mavjud bilim, tajriba va tasavvurlarni yangicha yo'nalishda qo'llash, noodatiy g'oyalar yaratish, muammolarni o'ziga xos va samarali yechimlar bilan hal qilish qobiliyatidir. U shaxsning ijodiy fikrlash jarayoni, tasavvur doirasi va tashabbuskorligini ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida kreativlikning birdan shakllanib qolmaydi. Izlanish, o'z ustida ishlash, dars va darsdan tashqar faoliyatlarda turli usul, metod, vositalar orqali rivojlantirib boriladi. Muammolarni yangicha hal etish – bir xil yo'ldan borish o'rniga samarali alternativlarni topish, fikrlash doirasining kengligi ijodkorlikni oshiradi. Topqirlik, mustaqillik, izlanuvchanlik ijodiy yondashuv ish samaradorligini oshiradi. Jamiyat taraqqiyotida esa yangilik va innovatsiyalar yaratilishiga asos bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantirishning bir qancha usullari mavjud. Bulardan "Aqliy hujum", rolli o'yinlar va sahnalashtirish, rasm chizish, qo'g'irchoq teatri, qo'l mehnatlari, fanlararo integratsiya kabilar turli vaziyatlarni ijodkorona hal qilishda, tasavvur va badiiy ifodani rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ta'lim tizimida yaratilgan yangi avlod darsliklarning har birida 4K ko'nikmalari kiritilgan bo'lib, bu har bir mavzu va unga ajratilgan topshiriqlarda o'z aksini topgan. Buni yaqqol ko'rishda Tarbiya darsliklaridan olingan topshiriqlarni o'rganish asosida o'quvchida tarkib topadigan ko'nikmalarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

4K kompetensiyalari	O'quvchida shakllanadigan ko'nikmalar
Hamkorlik (kollaboratsiya)	• Bir-birini nuqtai nazarini faol va e'tibor bilan tinglash. • Muhokama qilish • O'z fikrini himoya qilishda bahs-munozara olib borish
Kreativlik	• Turli g'oyalarni o'ylab topish • Muqobil g'oyani aniq va izchil tasvirlash
Kommunikativlik	• Tushunchalarni aniqlash va ularni tuzatish • Berilgan ma'lumotni tahlil qilish • Yaxlit fikriy tartibga kelish va nutqda bayon qilish
Tanqidiy fikrlash	• Ma'lumotni chuqur o'rganish • Tahlil qilish va yechimlarni saralash • Alternativ yechim tanlash



4K ko'nikmalarining hozirgi darsliklarda aks etgan mazmuni o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, turli hayotiy vaziyatlardan chiqishning muqobil imkoniyatlarini ishlab chiqish, ulardan xulosa chiqarish va shu holatni qayta takrorlamaslik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Qolaversa, boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan har qanday topshiriqlar yuqorida keltirilgan qator ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Samarali va zamonaviy ta'lim muhiti o'quvchilarga o'z intellektual qobiliyatlaridan foydalanish, bilimlarini chuqurlashtirish va ularni murakkab sharoitlarga moslashishda qo'llash imkoniyatini yaratishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi taraqqiy etayotgan raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar asrida tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik 21-asrning eng muhim ko'nikmalar sifatida ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishda muvaffaqiyat kaliti sifatida namoyon bo'ldi. Chunki bu ko'nikmalar nafaqat ta'lim jarayonida ta'limdan tashqaridagi hayotda ham yuksalishga erishish uchun asosiy zaruriyatlardir. Ular fanlarni chuqur o'rganishda, hayotiy faoliyatlarni tashkil etishda samarali hissa qo'shish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-y.
2. "Ta'lim sifatini baholash va xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2020-yil 6-noyabr, PQ-4884-son.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.
4. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. San Francisco: Jossey-Bass.
5. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Oxford: Capstone Publishing.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.